“NUTQ”, “MULOQOT”, “DISKURS”, “KONTEKST” VA “KOMMUNIKATIV STRATEGIYA” TUSHUNCHALARI VA ULARNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Ilmiy rahbar: **Kurbanov Elbek Elmurodovich**
Xurboyev Odiljon Xudoyberdi o‘g‘li
Turon Universiteti Andijon filiali magistranti
ORCID: 0009-0004-2610-0541
+998934454026
odilbekxurboyev@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20382399

Annotatsiya. Zamonaviy tilshunoslikda nutq tushunchasi til tizimining real kommunikativ jarayonda amalga oshirilishi sifatida talqin qilinadi. Nutq til birliklarining individual ong orqali tanlanishi va muayyan vaziyatda qo‘llanilishi natijasida yuzaga keladigan dinamik hodisadir. Shu jihatdan nutq tilga nisbatan harakatchan, vaziyatga bog‘liq va shaxsiy xarakterga ega bo‘ladi. Til esa ijtimoiy tabiatli, nisbatan barqaror va umumiy belgilar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Til va nutqni farqlash masalasi jahon tilshunosligida muhim nazariy muammo sifatida qaralib kelgan. Til ijtimoiy belgilardan tashkil topgan tizim, nutq esa ushbu tizimning individual qo‘llanilishi sifatida izohlanadi. Nutq individual va psixik hodisa, til esa sotsial va nisbatan statik tizim sifatida talqin qiladi. Demak, nutq muloqot jarayonida shaxsning faol ishtirokini aks ettiruvchi asosiy birlik hisoblanadi.
Kalit so‘zlar: nutq, til tizimi, kommunikativ jarayon, ijtimoiy, madaniy va pragmatik vaziyat, og‘zaki va yozma nutq, adabiy til, dialogik diskurs, nutq, muloqot, diskurs, kontekst, kommunikativ strategiya.

Abstract. In modern linguistics, the concept of speech is interpreted as the implementation of the language system in a real communicative process. Speech is a dynamic phenomenon that occurs because of the selection of language units by the individual consciousness and their use in a specific situation. In this regard, speech is mobile, situational and personal in nature compared to language. Language, on the other hand, is manifested as a system of social, relatively stable and general signs. The issue of distinguishing language and speech has been considered an important theoretical problem in world linguistics. Language is interpreted as a system consisting of social signs, and speech as an individual application of this system. Speech is interpreted as an individual and psychic phenomenon, and language as a social and relatively static system. Thus, speech is the main unit reflecting the active participation of the individual in the communication process.
Keywords: speech, language system, communicative process, social, cultural and pragmatic situation, oral and written speech, literary language, dialogic discourse, speech, dialogue, discourse, context, communicative strategy.

Аннотация. В современной лингвистике понятие речи интерпретируется как реализация языковой системы в реальном коммуникативном процессе. Речь — это динамическое явление, возникающее в результате выбора языковых единиц индивидуальным сознанием и их использования в конкретной ситуации. В этом отношении речь, по сравнению с языком, является подвижной, ситуативной и личностной по своей природе. Язык, с другой стороны, проявляется как система социальных, относительно стабильных и общих знаков. Вопрос о разграничении языка и речи рассматривается как важная теоретическая проблема в мировой лингвистике. Язык интерпретируется как система, состоящая из социальных знаков, а речь — как

индивидуальное применение этой системы. Речь интерпретируется как индивидуальное и психическое явление, а язык — как социальная и относительно статичная система. Таким образом, речь является основной единицей, отражающей активное участие индивида в коммуникативном процессе.

Ключевые слова: речь, языковая система, коммуникативный процесс, социальная, культурная и прагматическая ситуация, устная и письменная речь, литературный язык, диалогический дискурс, речь, диалог, дискурс, контекст, коммуникативная стратегия.

Nutq bu til tizimining real va individual qo‘llanilishi, ya’ni nutq shaxsning kommunikativ jarayoni sifatida faoliyat yuritadi. Nutq faqat tilning grammatik jihatdan to‘g‘ri birliklaridan iborat emas, balki muayyan ijtimoiy, madaniy va pragmatik vaziyatda amalga oshiriladigan, ma’no ifodalovchi, o‘zaro axborot almashinuvi sifatida ko‘riladi. Nutq, shuningdek, tilning psixologik, ijtimoiy va shaxsiy tajribaga asoslangan realizatsiyasidir. Ingliz tilida, “speech” shaxslar o‘rtasidagi haqiqiy og‘zaki muloqotni anglatishi mumkin. Masalan, rasmiy nutqda so‘zlovchi shunday degan bo‘lishi mumkin: *“Ladies and gentlemen, I stand before you today to discuss the future of education in our country”.* Bu misolda, so‘zlovchi tilni auditoriyaga tuzilgan va maqsadli xabarni yetkazish uchun ishlatmoqda. O‘zbek tilida misol: o‘zbek tilida “nutq” shunday ifodalanishi mumkin: *“Azizlar, bugun bizning mamlakatimizda ta’lim tizimi kelajagi haqida gaplashamiz”.* Bu nutqda, so‘zlovchi o‘z nutqini axborot uzatish maqsadida tuzgan.

Nutqda ikki xususiyat mavjud, shu sababli fikr ikki holatda: og‘zaki va yozma nutq va bunda fikr bayon etiladi. Ular har doim bir-biri bilan munosabatda va aloqadorlikda bo‘ladi. So‘zlashuv tili yozma adabiy tilning manbaidir. So‘zlashuv tili dialogik diskurs shaklida namoyon bo‘ladi va bu diskurs hozirjavoblik asosida tuziladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, so‘zlashuv tili deganda, faqat dialogni tushunmaslik kerak. Albatta, ular bir-biri bilan bog‘liq hodisa, shu bois yozma va og‘zaki adabiy til tarkibida har ikkala nutq shakli mavjuddir. L.V. Shcherbaning fikricha, so‘zlashuv nutqi dialog shaklida yuz beradi. Bu esa dialogning tabiiyligini ta’minlaydi. Til dialogdagina o‘zining haqiqiy borlig‘ini namoyon qiladi. Tilning og‘zaki va yozma shakllarini bir-biri bilan taqqoslab ko‘rsak, adabiy tilning asosida monolog yotganligini ko‘ramiz. L.V. Shcherba adabiy tilning belgilarini qo‘rib chiqib, ularni adabiy tilning turli shakllari va ish yuritish tilining turli ko‘rinishlari deb ikki guruhga ajratadi. “Har bir shakl va har bir usul hayotiy zarurat talab qiladigan ma’lum vazifani bajarish uchun uning sintaktik xususiyati bilan bog‘liqdir”, - deb hisoblaydi. [3.4] Shu o‘rinda dialog va monolog xususida to‘xtalmoqchimiz. Ma’lumki, sotsial-nutqiy aloqada dialog eng ko‘p qo‘llaniladigan shakllardan hisoblanadi. Monolog esa, murakkab nutq shakli bo‘lib jamoa tomonidan qo‘llaniladigan ifoda formasi bo‘lmasdan, balki individual shaxs tomonidan tuzilgan nutq formasidir. Dialogik nutq tahlili obyekti alohida olingan gaplar tahlilidan emas, balki matn tahlilidan iborat bo‘ladi. «Dialogik matn ikki shaxsning mavzuiy va mantiqiy bir butunlikni tashkil etadigan, biri ikkinchisini to‘ldirib, aniqlab, izohlab keladigan gaplar yig‘indisidan tashkil topgan bir butun nutqiy birlikdir». [4.71] Dialogik nutq ko‘rinishida tinglovchiga axborotni tez, aniq, sodda va ta’sirchan yetkazish maqsad qilingan bo‘ladi. Shuning uchun suhbat jarayonida ellipsisdan, turli imoishoralardan keng foydalaniladi. Mutaxassislar fikricha, «aloqaaralashuvda so‘z, so‘z birikmasi, gap, ayrim hollarda matnlar ham ellipsisga uchrashi yoki nolisoniy vositalar bilan almashtirilishi mumkin.

Dialogik matnlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kommunikantlar aloqa-aralashuv jarayonida nolisoniy vositalardan lisoniy vositani izohlash, to‘ldirish, ta’kidlash, aniqlik kiritish, kompensatsiya qilish (lisoniy birlik o‘rnida qo‘llash) maqsadlarida foydalanadilar».

Monologik nutq badiiy asar qahramonlarining o‘z-o‘ziga yoki o‘zgalarga qaratilgan nutqidir. Ham she’riy ham nasriy asarlarda ishlatiladi. Badiiy asarlardagi maktublar asosan monologik

yozma nutq koʻrinishida boʻladi (eslang: Kumushning Otabekka yozgan maktubi, yoki Otabekning Kumushga yozgan maktubi). Bu mavzuning oʻzi tilshunoslik sohasida alohida tadqiq manbai boʻlgan. She'riy matnlarda lirik qahramon kechinmalarini tugal tasvirlash uchun monologik nutqdan foydalaniladi. Ichki monologik nutq – qahramonning oʻz-oʻzi bilan ichdan gapirishi, fikrlashi, fikr va tuygʻularining ichki ifodasidir. Ichki monologda qahramon oʻzining sirli, yashirin fikrlarigacha aytadi, shu boisdan ichki monolog orqali qahramon kitobxon oldida oʻz-oʻzini ochadi. Shuning uchun ham uning shaxsiyatida hech narsa sirli yoki tushunarsiz boʻlib qolmaydi. Ichki monolog soʻzlashuv nutqidan oʻzining ochiq va oshkoraligi bilan ajralib turadi. [5. 6] Arosat yalangligida Yigit yolgʻiz oʻzi. Yigit: Umrim oʻtdi sarsonlikda, sargardonlikda, Yaxshi-yomon zamonlarni koʻrib keldim men. Ba'zan ma'no topa oldim chin insonlikda, Ba'zan esa uni yerga urib keldim men. Mana, oʻsha tarozibon, u-ku farishta, Insonlardan koʻra yuksak turajak-ku u. U zotga ham qiyin ekan bundaqa ishda, Koʻzlarida allanechuk norizo tuygʻu. Qiyin axir ularga ham, qalblari bordir, Qiyin axir ularga ham-bordir koʻzlari. Faqatgina farmon berar Ollohi Qodir, Lekin qalbni anglamaydi qizlar singari. Endi qayga borsam ekan bu dasht, sahroda, Qayga borib padarimni kimdan soʻrasam? Bilolmasam, kim doʻzaxda, kim arsh-a'loda… (A.Oripov) Dialogik nutq ham, monologik nutq ham uch koʻrinishda boʻlishi mumkin: ichki nutq, tashqi nutq va parallel nutq. Choʻlponning «Kecha va kunduz» romanida Miryoqubning «men» bilan suhbati dialogik nutq xarakterida, lekin ifoda tarzi ichki nutq shaklida berilgan. «Parallel nutq - qahramon ichki va tashqi nutqlarining bir vaqtning oʻzida namoyon boʻlishidir. Bu nutq shakli koʻpincha qahramonlar oʻrtasidagi dialog jarayonida kuzatiladi va ichki nutq bunday hollarda suhbatdoshga boʻlgan munosabatni bildiradi». Fursatni toʻgʻri keltirib turib: -Imperiya nima degani?-deb soʻradim. -Nega soʻrab yotibsiz?-dedi. -Oʻzingiz bilgan amaldor oshnam bir kun «Imperiya botib boradi» dedi, shunda juda xafa boʻlib gapirdi. -Uning imperiya degani oʻris podshosining qoʻl ostidagi yurtlar. Unda har qaysi millatdan bor, shu qatorda biz shoʻrliklar ham bor. (...) Sogʻin sigirni kim istamaydi? Oppoq, shirin suti bor... -Nimaning suti bor? –deb soʻradim men. Kuldi. -Siz-biz sogʻin sigirmiz, bizning shirin sutimiz bor, ruslar va boshqa ajnabiylar «bizni» emib yotadilar. Bir biz emas. Qarangiz, Hindiston, Sharqiy Turkiston, Tunis, Jazoir, Magʻribiston, ya'ni Marokash (...) U gapiradi, gapiradi. Men hayron boʻlaman. Muncha nomlarni qaydan biladi? Hammasi qandoq qilib esida turadi? Hammasini oʻz koʻzi bilan koʻrganmi? Yo meni laqillatib, oʻz ichidan chiqarib aytadirmi? (Choʻlpon) Sharofuddin Xodjaev bilan Miryoqub oʻrtasida boʻlib oʻtayotgan ushbu suhbat jarayonida Miryoqubning ichki nutqi bilan tashqi nutqi parallel ravishda berib borilgan. Qahramon ichki dunyosida roʻy beradigan oʻzgarishlarni aks ettirishda bu usuldan foydalaniladi.

Dialogda ifodalilik, ekspressivlik elliptiklik formalari koʻrinib turadi. Ular qahramon dunyosi va xarakterini ochishda, individual obraz yaratishda, ularning ijtimoiy xulqini aniqlashda sotsial-nutqiy xarakteristika hisoblanadi. Dialogda intonatsiya tez-tez oʻzgarib turadi. Bunda nutqning sinkretik tabiati ijtimoiy matn va sharoit kabi funksional aloqa natijasida yuzaga keladi. Bundan tashqari, dialogda suhbatdoshning eshitish qobiliyati ham muhim rol oʻynaydi. Ma'lumki, soʻzlovchi oʻz nutqida turli xil ma'nolarni, jumladan, emotsionallikni ifodalaydi. Bu ottenkalar intonatsiya yordamidagina toʻliq aniqlanadi. Har qanday subyektiv xarakterdagi fikr emotsionallikni aks ettiradi. Fikrning emotsional tomoni katta ma'no ahamiyatiga egadir.

Dialogik nutqning kuchli emotsionalligi maxsus formalarining mavjudligi, oʻziga xos intonatsiyasi, oldindan oʻylangan formalar bilan soʻzlashning imnoniyatsizligi uning asosiy belgisidir. Dialogik nutq oʻzining sintaktik qurilishi bilan ham ajralib turadi va u oʻzining sintaktik xususiyati bilan monologdan farqlanadi. Monolog bilan dialog oʻrtasida struktural, formal va til formalarining ishtirokiga koʻra farqlar mavjud. Monolog uslubiy jihatdan shakllantirilgan sotsial-nutqiy shakldir. Bunda ijtimoiy, madaniy, nutqiy aloqa murakkab namoyon boʻladi. Ma'lumki, monologik nutq tarkibida ham dialog boʻlishi mumkin. Uning turlari bir necha xil boʻladi.

Monolog uslubiy jihatdan neytral bo‘lib, uchinchi shaxsdan ikkinchi shaxsga qaratilgan bo‘ladi. Hozirgi o‘zbek nasridagi dialoglar bir xil ko‘rinishga ega emas. Ular orasida dialogning eng ko‘p tarqalgan uch xil tipiga: jonli (real), xayoliy (tasavvurdagi), ichki dialog kabilarga ajratib ko‘rsatish mumkin. Nomlanishi jihatdan xayoliy va ichki dialoglar bir xildek tuyuladi. Shuning uchun ham ba’zida tadqiqotchilar ularni chalkashtirib yuboradilar. [6. 41] Aslida ular yaratilish jarayoni va tuzilishiga ko‘ra birbiridan tubdan farq qiladi. Masalan, xayoliy dialog qahramonlar o‘rtasida avval ro‘y bergan jonli (real) dilogning keyinroq suhbatdoshlardan yoxud uni eshitganlardan birining xayoli (tasavvuri)da qayta tiklanishidir. Ichki dialog esa qahramonning o‘z-o‘ziga yoki biror hamsuhbati (ehtimol, sevgilisi yoxud raqibi) bilan g‘oyibona fikrlashuvi, tortishuvi asosiga quriladi. Keyingi yillar nasrida ommalashib borayotgan «bahs-dialog», «xarakteristik (tavsifiy) dialog», «dramatik dialog» kabi turlar ham uchala tip tarkibida ham g‘oyat unumli qo‘llanilayotganligining guvohi bo‘lamiz. Bunday turlar dialogning tub fazilatlarini o‘zida yorqin namoyon etishi bilan birga, hozirgi paytda asarning kompozitsion-stilistik qurilmasida tobora murakkablashib, kengayib va rang-baranglashib borayotganligi ko‘zga yaqqol tashlanmoqda. Masalan, hozirgi nasrimizda birgina bahsdialogning bir necha shakllarini uchratish mumkin.

Bahs-dialogning eng yaxshi namunasi yozuvchi Murodjon Mansurovning «Mangu jang» romanida uchraydi. Akademik M.Baxtin «Dostoevskiy poetikasining muammolari» kitobida «Dostoevskiy ijodida dialogning asosiy qurilishi juda sodda: xuddi «men» ni «o‘zga»ga qarama-qarshi qo‘ygandek, odamni odamga qarshi qo‘yadi», deb yozadi. Bizningcha, M.Mansurovning «Mangu jang» romani ham xuddi shunday uslubda yozilgandek. Aytish mumkinki, roman boshidan-oxirigacha munozara ruhi bilan sug‘orilgan, insonniinsonga yuzma-yuz qo‘yish asosiga qurilgan. Bu tortishuvchi tomonlar M.Mansurov qahramonlari orasida begona emas.

Yozuvchi roman konfliktini kuchaytirish, syujet dinamikasini rivojlantirish niyatida, avvalo, bemor Burxon cholni shartli ravishda uch qiyofaga bo‘ladi. Suvratdagi Burxon to‘kis bilan o‘zligini anglayotgan va o‘zlikka qaytayotgan Siyratdagi Burxon o‘rtasida ayovsiz tortishuv ketadi. Uchinchi odam – bemor Burhon chol esa bunday paytda tinglovchi sifatida o‘zini chetga oladi. Suvratdagi Burxon bilan Siyratdagi Burhon o‘rtasida xayoliy dialog tipi qo‘llaniladi. Real dialogda Burhonga qarama-qarshi qo‘yilgan ikkinchi shaxs uning do‘sti va ayni paytda, uning amal pillapoyalaridan ko‘tarilishida xalaqit beradigan «raqibi» Akbar polvondir. Romanning bosh qahramonlari Burhon to‘qis bilan Akbar polvonning 20-30-yillardan to 50-yillargacha bir-biriga qaramaqarshi tarzda o‘tkazgan faoliyatlari romanning asosiy g‘oyasini tashkil etadi va bu dialoglarda o‘zining yorqin ifodasini topgan.

Muloqot insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni amalga oshiruvchi murakkab jarayon bo‘lib, u axborot almashinuvi, o‘zaro ta’sir va tushunishni ta’minlashga xizmat qiladi. Muloqot jarayoni faqat til vositalari orqali emas, balki paralingvistik va noverbal omillar orqali ham amalga oshiriladi. Shu bois muloqot nutqdan kengroq tushuncha bo‘lib, u ijtimoiy, psixologik va madaniy komponentlarni o‘z ichiga oladi. Muloqot jarayonida so‘zlovchi va tinglovchi o‘zaro aloqada bo‘lib, ular orasida axborot uzatilishi bilan birga munosabat va baholash ham shakllanadi. David Crystal muloqotni tilning asosiy funksional muhitlaridan biri sifatida baholab, nutqiy faoliyat aynan muloqot jarayonida o‘zining real qiymatini namoyon etishini ta’kidlaydi. [7. 364–372] Muloqot bu shaxslar o‘rtasida axborot almashish jarayonidir. Muloqotda til vositalari, paralingvistik omillar (intonatsiya, mimika) va noverbal aloqalar (imo-ishoralar, tana tilidan foydalanish) ishlatiladi. Muloqot bu faqat so‘zlar orqali emas, balki shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ta’minlaydigan barcha vositalardan foydalanishdir. Masalan: ingliz tilida *“communication”* insonlar o‘rtasida g‘oyalar, axborot yoki his-tuyg‘ular almashinuvi degan ma’noni anglatadi: *“When discussing a project with colleagues, clear communication is essential for understanding each other’s perspectives”.*

Bu kontekstda g‘oyalar yoki fikrlarni almashish muloqotni tashkil etadi, bu esa nafaqat og‘zaki, balki noverbal elementlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin. O‘zbek tilida *“muloqot”* bu kabi ifodalanadi: *“loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun jamoa a’zolari o‘rtasida aniq muloqot zarur”.* Bu yerda muloqot, jamoa a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro fikr almashish jarayoni sifatida ko‘riladi. Demak, nutq muloqotning markaziy mexanizmi bo‘lsa-da, muloqot nutqdan kengroq kommunikativ hodisadir.

Zamonaviy lingvistikada diskurs tushunchasi nutqni faqat gaplar ketma-ketligi sifatida emas, balki ijtimoiy va madaniy kontekstda amalga oshadigan kommunikativ faoliyat sifatida talqin qilish bilan bog‘liqdir. Diskurs nutqning vaziyatga, ishtirokchilarga va ijtimoiy sharoitga bog‘liq holda tashkil topgan shaklidir. Teun A. van Dijk diskursni ijtimoiy-kognitiv hodisa sifatida izohlab, uni ishtirokchilarning bilimlari, tajribasi va ideologik qarashlari bilan bog‘laydi. [8. 3–15] Bu yondashuvga ko‘ra, diskurs matndan kengroq tushuncha bo‘lib, u nutq, kontekst va ijtimoiy bilimlar birligida yuzaga keladi. Diskurs tushunchasi bu nutqiy birliklarning ma’no ifodalash va qo‘llanish doirasidagi umumiy ko‘rinishi. Nutqiy aktlar va dialoglar yoki monologlar jamlanmasi sifatida diskurs tushuniladi. Diskursda til, kontekst va ijtimoiy jihatlar o‘zaro bog‘lanib, ijtimoiy, madaniy yoki siyosiy maqsadlar uchun qo‘llaniladi. Ingliz tilida *“discourse”* tilning muloqotda qanday ishlatilishini anglatadi, ko‘pincha ijtimoiy kontekstdan ta’sirlanadi. Masalan: *“The political discourse around climate change has evolved significantly over the past decade”.* Bu yerda diskurs, ma'lum bir mavzuni muhokama qilish va unga murojaat qilishda ishlatilgan tilni anglatadi, bu esa jamiyat omillari va hokimiyat tuzilmalaridan ta'sirlanadi. O‘zbek tilida *“diskurs”* quyidagicha ifodalanadi: *“Iqlim o‘zgarishi masalasi bo‘yicha siyosiy diskurs oxirgi yillarda sezilarli darajada o‘zgardi”.* Bu yerda diskurs, siyosiy nutqlar, maqolalar yoki munozaralar doirasidagi til orqali ifodalangan fikrlarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli diskurs tahlili nutqiy muloqotni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Badiiy adabiyotda dialogik diskursning o‘rni nihoyatda katta. Asarda voqea yozuvchi tomonidan bayon qilinar ekan, shunday vaziyat yuzaga keladiki, endi muallif voqealar rivojining keyingi bosqichini o‘z so‘zlari bilan ifoda qilishning iloji bo‘lmay qolmaydi. Bunday paytda yozuvchi dialogga murojaat qiladi. Bu o‘rinda biz dialog atamasiga maxsus to‘xtalib o‘tirmaymiz, chunki, bunday ta’rif I.Sultonning “Adabiyot nazariyasi”, N.Shukurov, N.Hotamov, M.Mahmudovlarning “Adabiyotshunoslikka kirish” va “Adabiyot nazariyasi” nomli ikki jildligi hamda boshqa bir qator olimlarning ishlarida o‘z aksini topgan. Shuni qayd etish kerakki, fanda diskurs atamasiga aloqador dastlabki e’tiroflar XX asrning 50-yillarida shakllandi. Mavjud manbalarda muammoga birdan ortiq gaplardan tashkil topgan va “murakkab sintaktik mohiyatli birlik” sifatida qarashgan. [9. 108-115.] Bu hodisa tilshunoslikda mantiqiy grammatika hamda so‘zlashuv nutqi aloqadorligi sifatida baholangan. Shuningdek, o‘tgan asrning 20-yillarida tilshunoslikda diskurs hodisasi og‘zaki nutqqa aloqador ekanligi, ularning nutq jarayonida undalma, kirish so‘z, kirish birikmalar bilan ham ifodalanish holatlarining mavjud ekanligi, bu esa ularning “murakkab sintaktik qurilma” sifatida baholanishiga asos bo‘la olishi haqidagi fikrlar ham ilgari surilgan. Xorijiy tilshunoslikda sintaktik diskurs muammosi o‘tgan asrning 50-yillarida Z.Xarris tomonidan ko‘tarildi. [10. 8-45] XX asrnig 70-yillariga kelib, mazkur masalaga taalluqli ishlarning salmog‘i birmuncha oshdi. O‘rganilgan tadqiqotlarda diskurs so‘zlashuv nutqining monopredikativ birligi sifatida talqin etildi. Bu vaqtga kelib, ilmiy manbalarda matn tilshunosligi, matn tadqiqining nutq nazariyasi bilan aloqadorligi, amaliy stilistika, muloqot nazariyasi, til o‘rgatish, avtomatik tarjima kabi atamalar qo‘llana boshlandi. O‘tgan asrning 70-yillari sintaksisidagi eng katta yutuqlardan biri grammatik diskursning so‘zlashuv nutqidagi mavqei tilshunoslikning alohida bo‘limi hamda muammoning alohida tadqiqot manbai sifatida shakllanganligidir.

Ba’zi manbalarda esa diskurs atamasining tilshunoslikdagi mavqei va uning qo‘llanilishiga e’tirozlar ham bildirilgan. Chunonchi, 1966 yilda tilshunos R.Godel “diskurs atamasining

tilshunoslikka oid tadqiqotlarida qo‘llanilishi til va nutq hodisalari haqida aniq xulosa chiqarishga shubha tug‘dirishi mumkinligi haqidagi e’tirofini N.A.Slyusarev o‘z izlanishlarida qayd etdi va bu R.Godel e’tiroziga qarshi asosli, ilmiy javob bo‘ldi. [11. 356] Bu kabi ilmiy izlanishlar va muammoga nisbatan bildirilgan turlicha qarashlar dialogik diskurs masalasining tilshunoslikda hal qilinish lozim bo‘lgan, tadqiqqa muhtoj qirralari mavjud ekanligidan dalolat beradi. Odatda, dialogik diskurs haqida gap ketganda, uni “ikki yoki undan ortiq shaxs o‘rtasidagi suhbat” deb ta’riflashadi. Bu to‘g‘ri, ammo bir yoqlama fikr. Gap shundaki, dialogik diskurs badiiy ijodkor uchun ijod texnikasining eng qiyin bo‘laklaridan biri sifatida qaralsa, tilshunos uchun uning sintaktik o‘ziga xosliklari, uning mazmuni va tuzilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tilning ikki – og‘zaki va yozma jihati har doim bir-biri bilan munosabatda va aloqador. So‘zlashuv tili yozma adabiy tilning manbaidir. So‘zlashuv tili dialogik diskurs shaklida namoyon bo‘ladi va bu diskurs hozirjavoblik asosida tuziladi. Lekin unutmaslik kerakki, so‘zlashuv tili deganda, faqat dialogni tushunmaslik kerak. Albatta, ular bir-biri bilan bog‘liq hodisa, shu bois yozma va og‘zaki adabiy til tarkibida har ikkala nutq shakli mavjud. L.V.Shcherbaning fikricha, so‘zlashuv nutqi dialogik diskursshaklida yuz beradi. Bu esa dialogning tabiiyligini ta’minlaydi. Til dialogdagina o‘zining haqiqiy borlig‘ini namoyon qiladi. Uning og‘zaki va yozma shakllari taqqoslab ko‘rilsa, adabiy tilning asosida monolog yotganligini ko‘ramiz. L.V.Shcherba adabiy tilning belgilarini qo‘rib chiqib, ularni adabiy tilning turli shakllari va ish yuritish tilining turli ko‘rinishlari tarzida ikki guruhga ajratadi va “Har bir shakl va har bir usul hayotiy zarurat talab qiladigan ma’lum vazifani bajarish uchun uning sintaktik xususiyati bilan bog‘liq” deb hisoblaydi. [12.4] Dialogik diskurs uchun harakterli bo‘lgan xususiyatlardan biri, dialogik birliklarning har biri alohida sintaktik qurilishga ega bo‘lgan replikalarga bo‘linishidir. [13.35] Dialogik replika o‘zining hajmi, suhbatdoshga qaratilganligi, mavzu chegarasining borligi bilan monologdan farq qiladi. Dialogik diskurs birliklarini tashkil etuvchi va uni muloqot birligi sifatida ko‘rsatuvchi vositalar: ifodalilik, ekspressivlik, elliptiklik shakllari bilan birga intonatsiyaning o‘z o‘rni bor. Dialogik diskursning sintaktik qurilishini replikalar xususiyatidan kelib chiqqan holda sodda va qo‘shma gaplarga ajratish mumkin. Dialoglarda uchraydigan qo‘shma gaplarni kuzatar ekanmiz, uning lisoniy birlik sifatida murakkab tabiatli ekanligi, bu murakkablikda uning lisoniy sathda tutgan o‘rni, tarkibidagi sodda gaplarning grammatik shakli va bog‘lovchi vositalari hamda mazmuniy munosabatlarining rang-barangligi ko‘zga tashlanadi.

Ma’lumki, qo‘shma gap til sintaktik sathining yuqori birligidir. Sodda gap ham sintaktik sath birligi hisoblansa-da, u qo‘shma gapga qaraganda ancha ixcham. Zero, har ikki nutqiy birlik kommunikativ vazifa ifodalashi jihatidan umumiylik belgisiga ega bo‘lsa-da, tilda alohida qurilish qolipiga egaligi, semantik-sintaktik tarkibi jihatidan o‘zaro farqlanadi. Anglashiladiki, an’anaviy sintaktik nazariyalarda qo‘shma gaplar mazmuni, grammatik tuzilishi hamda ohangiga ko‘ra bir butunlikni tashkil etgan, ikki yoki undan ortiq sodda gaplarning bog‘lovchi yoki bog‘lovchi vazifasidagi vositalar yordamida birikuvidan tuzilgan sintaktik qurilmalar tarzida talqin etilsa, shaklvazifaviy tadqiq usulida qo‘shma gaplar ikki va undan ortiq shakllangan kesimli gaplar sifatida talqin etiladi. [14.59] Shunday ekan, tilshunoslikda dialogik diskursning qo‘shma gapdagi mavqeiga e’tibor kuchayishi tabiiy hol. Muammo yechimini tahlil qilar ekanmiz, dastlab mazkur hodisaning lingvistik mohiyatini, uning boshqa lisoniy birlik va tuzilmalardan farqlovchi xususiyatlarini hamda dialogik diskursning qo‘shma gap sifatida voqelanishidagi o‘ziga xos omillar nimalardan iborat ekanligini bilish lozim.

Kontekst nutqiy birliklarning real ma’nosini aniqlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Kontekst deganda nutqning til ichidagi (lingvistik) va til tashqarisidagi (ekstralingvistik) sharoitlari tushuniladi. Bir xil nutqiy birlik turli kontekstlarda mutlaqo boshqa pragmatik ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Kontekst tushunchasi dastlab John R. Firth tomonidan “vaziyat

konteksti” sifatida izohlangan bo‘lib, u nutqni tushunishda tashqi omillarni hisobga olish zarurligini ta’kidlagan. [15.181]

Keyinchalik pragmatik va diskursiv yondashuvlarda kontekst ishtirokchilarning kognitiv modeli bilan bog‘lab talqin qilindi. Kontekst nutqiy birligini tushunishda yordam beradigan, nutqning joylashuvi, vaqt va muhitga asoslangan omildir. Nutqdagi biror so‘zning ma’nosi faqat uni qo‘llanayotgan kontekstda to‘liq anglanadi. Kontekst tilning ma’no va funksiyasini aniqlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ingliz tilida *“context”* tilning qo‘llanilishi atrofidagi sharoitlarni anglatadi. Masalan: *“The word ‘bank’ means a financial institution in one context, but it can also refer to the side of a river in another”.* Bu yerda, kontekst atrofdagi elementlarga asoslanib, “bank” so‘zining qaysi ma’nosi to‘g‘ri ekanini belgilaydi. O‘zbek tilida *“kontekst”* quyidagicha ifodalanadi: *“Bank so‘zi kontekstdan kelib chiqib turli ma’nolarga ega bo‘ladi: birida moliyaviy muassasa, boshqasida esa daryo bo‘yidagi yer”.* Bu yerda, kontekst tilning mazmunini aniqlashda asosiy rolni o‘ynaydi. Shunday qilib, kontekst nutqiy muloqotning semantik va pragmatik talqinini ta’minlovchi asosiy tushunchalardan biridir.

Kommunikativ strategiyalar nutqiy vaziyat, ishtirokchilar omili va madaniy me’yorlarga mos ravishda shakllanadi. Stephen C. Levinson kommunikativ strategiyalarni nutqiy xulq-atvorning muhim komponenti sifatida baholab, ularni pragmatik kompetensiya bilan bevosita bog‘laydi. [16.226–231] Kommunikativ strategiyalar nutq davomida o‘zgarishi, moslashuvi va qayta tashkil topishi mumkin. Bu holat nutqiy muloqotning dinamik va interaktiv xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi.

Kommunikativ strategiya bu nutqiy maqsadga erishish uchun so‘zlovchi tanlagan yo‘l va metodlar majmuidir. Kommunikativ strategiyalar nutqiy vaziyatga, ishtirokchilarning maqsadlari va ehtiyojlariga qarab o‘zgarishi mumkin. Kommunikativ strategiya, ko‘pincha, so‘zlovchining nutqiy faoliyatining samaradorligini ta’minlaydi. Ingliz tilida *“communicative strategy”* muayyan kommunikativ maqsadga erishish uchun ishlatiladigan usullarni o‘z ichiga oladi. Masalan: “When presenting a proposal to a client, a communicative strategy might involve simplifying complex terms to ensure understanding”. Bu misolda, strategiya tilni soddalashtirish orqali tushunishni osonlashtirishdir. O‘zbek tilida *“kommunikativ strategiya”* quyidagicha ifodalanadi: *“Mijozga taklifnoma taqdim etishda, kommunikativ strategiya murakkab atamalarni soddalashtirishni o‘z ichiga oladi, shunda mijoz yaxshiroq tushunadi”*. Bu yerda kommunikativ strategiya, so‘zlovchining maqsadga erishish uchun tilni qanday ishlatishiga bog‘liq.

Shunday qilib, “nutq”, “muloqot”, “diskurs”, “kontekst” va “kommunikativ strategiya” tushunchalari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, nutqiy muloqotni lingvistik va pragmatik jihatdan to‘liq talqin qilish imkonini beradi. Ushbu tushunchalar tadqiqotning nazariy asosini tashkil etib, keyingi boblarda nutqiy muloqotning amaliy va paralingvistik jihatlarini tahlil qilish uchun metodologik poydevor vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ferdinand de Saussure. *Course in General Linguistics*. London: Duckworth, 1983, 13–18-betlar.
2. Zvegintsev V.Ya.. *Teoreticheskaya grammatika yazyka*. Moskva: Nauka, 1973, 45–47-betlar.
3. Щерба Л. В. Восточно-лужское наречие. Петербург, 1915, стр. 4.
4. Саидхонов М. Диалогик нутқнинг коммуникатив таҳлили //Ўзбек тили ва адабиёти , 2004, №2, 71-б.
5. Шодиев Р. Руҳият рассоми. –Т: «Фан», 1997, 6-б.
6. Жўраев Т. Онг оқими ва тасвирийлик. Тошкент, 1994; Шодиев Н. Қудратли тўлқинлар олами. Тошкент, 1982. 41 b.
7. David Crystal. *The Cambridge Encyclopedia of Language*. Cambridge: CUP, 2010, 364–372-betlar.

8. Teun A. van Dijk. *Discourse and Context*. Cambridge: CUP, 2008, 3–15-betlar.
9. Фигуровский И.А. Основные направления в исследованиях синтаксиса связного текста // Лингвистика текста. Материалы научной конф. Ч. II. – М.: МГПИИЯ им. М. Тореза, 1974. – С. 108-115.
10. Harris Z.S. Analyse du discours // Languages, 1969. – №13. – P. 8-45
11. Benveniste E. Problèmes de linguistique général. – Paris: Gallimard, 1966. – 356.
12. Щерба Л. В. Восточно-лужское наречие. Пехербург, 1915, стр. 4.
13. Ҳазратқулов А. Диалогик нутқ синтаксисининг баъзи бир хусусиятлари. Қарши.1978. -35 б.
14. Абдураҳмонов Ғ.А. Қўшма гап синтаксиси. –Тошкент, 1964, 59-бет. 2.
15. John R. Firth. *Papers in Linguistics*. Oxford: OUP, 1957, 181–188-betlar.
16. Stephen C. Levinson. *Pragmatics*. Cambridge: CUP, 1983, 226–231-betlar.